ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (156)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2026-yil, 2-son (156/2) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	Samarqandning Temuriylar sulolasi davridagi evolyutsiyasi, uning sivilizatsiyalarga o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi **Keremu N.**	The evolution of samarkand during the timurid dynasty and the interaction and fusion of its civilizations **Keremu N.**	**5-11**
2	Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasida muallif uslubiga lingvopoetik jihatdan yondashuv **Safarova D.B.**	A Linguopoetic Approach to the Authorial Style in Nazar Eshonqul’s Short Story “Bepoyon osmon” (The Boundless Sky”) **Safarova D.B.**	**12-15**
3	Ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning tasnifi va ularning til tizimidagi o‘rni **Pardayeva N.B.**	Classification of neologisms in english and uzbek languages and their role in the language system **Pardaeva N.B.**	**16-20**
4	O‘rta asrlarda sharq va g‘arbiy yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili **Abdullayev A.G.**	A comparative analysis of public administration and social structures in the countries of Eastern and Western Europe in the Middle Ages **Abdullaev A.G.**	**21-27**
5	Davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari **O‘tayev O‘. Ch.**	History of the formation of the state ecological expertise system and its development stages **Utaev U. Ch.**	**28-30**
6	Samkomstarisning Samarqanddagi arxeologik tadqiqotlari va muzey fondlari shakllanishiga qo‘shgan hissasi **Yunusov M.**	The contribution of samkomstaris to archaeological research in Samarkand and to the formation of museum collections **Yunusov M.**	**31-36**
7	7-9-sinf o‘quvchilarining stem kompetensiyalarini baholash: spetsifikatsiya, mezonlar va kpi indikatorlari **Aliyeva X.Sh.**	Assessment of Stem competencies of 7-9 grade students: specification, criteria and kpi indicators **Alieva Kh.Sh.**	**37-42**
8	Raqamli tibbiy ta’limda talabalarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari **Mirzakarimova D.B.**	Technologies for the development of preventive immune culture in digital medical education students **Mirzakarimova D.B.**	**43-49**
9	10-12 yoshli kurashchilarda egiluvchanlik sifatining kurash texnikasini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri **Toshmurodov O.**	The effect of flexibility on the efficiency of kurash technique acquisition in 10–12-year-old kurash athletes **Toshmurodov O.**	**50-57**
10	Влияние государственной политики развития спорта (в контексте «нового Узбекистана») на мотивацию учащихся спортивных школ **Мадаминов Б.Ш.**	The influence of state policy on sports development (in the context of "New Uzbekistan") on the motivation of students in sports schools **Madaminov B.Sh.**	**58-62**
11	Трансформация и калькирование иронических фразеологических единиц в русском и узбекском языках **Тошбекова Д.И.**	Transformation and Calquing of Ironic Phraseological Units in Russian and Uzbek **Toshbekova D.I.**	**63-68**
12	Объективная и субъективная модальность в русском и узбекском языках **Усманова С.Ю.**	Objective and subjective modality in Russian and Uzbek languages **Usmanova S.Yu.**	**69-76**
13	Образ женщин в произведениях Ч. Айтматова **Хаитова Ф.С.**	The Image of Women in the Works of Ch. Aitmatov **Khaitova F.S.**	**77-81**
14	Voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish afzalligi **Boltayev Z.B.**	The advantage of using modern pedagogical technologies in the process of training volleyball coaches **Boltaev Z.B.**	**82-87**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
15	Bo‘lajak shifokorlarda klinik-diagnostik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli va raqamli ta’lim **Zokirov M.M.**	Pedagogical model for developing clinical-diagnostic competence in future physicians and digital educational technologies **Zokirov M.M.**	**88-93**
16	Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (tika)ning tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda tashkiliy-siyosiy asoslari **Isadjanov B.I.**	The Establishment and Development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA), as well as its Organizational and Political Foundations **Isadjanov B.I.**	**94-98**
17	Ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlari: lingvostilistik tahlil **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	Translation features of English newspaper headlines: linguistic-stylistic analysis **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	**99-103**
18	Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda 4k modeli orqali fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	Developing thinking and creativity through the 4k model in teaching mother tongue in primary grades **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	**104-108**
19	Raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining konfiguratsiyasi **Muminjonova U.X.**	Configuration of legitimacy and citizenship in the digital democracy **Muminjonova U.X.**	**109-113**
20	Simulyatsion va raqamli ta’lim muhitida jarrohlik fanini o‘qitishda amaliy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi **Abduvoxidov A.A.**	Technology for developing practical professional competencies in teaching surgery within a simulation-based and digital learning environment **Abduvoxidov A.A.**	**114-119**
21	Shoshilinch tibbiy yordamda travmatologik holatlarni sun’iy intellekt asosida erta triaj qilish va klinik qaror qabul qilish samaradorligini oshirish metodikasi **Xolmatov A.A.**	Methodology for improving the efficiency of early triage and clinical decision-making in traumatological conditions in emergency medical care based on artificial intelligence **Xolmatov A.A.**	**120-125**
22	Bo‘lajak shifokorlarda klinik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik raqamli texnologiyalari **Samatov Z.Z.**	Pedagogical digital technologies for developing clinical decision-making competence in future physicians **Samatov Z.Z.**	**126-130**
23	Yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda klinik-profilaktik fikrlash va epidemiologik xavflarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Turdiyev M.N.**	Technology for developing clinical-preventive thinking and epidemiological risk management competencies in teaching infectious diseases **Turdiev M.N.**	**131-136**
24	Bo‘lajak shifokorlarga raqamli ta’lim muhitida anatomiya fanini o‘qitishninig zamonaviy texnologiyalari **Nishonova D.T.**	Modern technologies of teaching anatomy to future physicians in a digital educational environment **Nishonova D.T.**	**137-142**
25	Stomatologiya ta’limida valeologik madaniyatni rivojlantirishning integrativ va raqamli pedagogik texnologiyalari **Kamoliddinova I.Sh.**	Ntegrative and digital pedagogical technologies for developing valeological culture in dental education **Kamoliddinova I.Sh.**	**143-148**
26	Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini interfaol ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish **Temirova Z.A.**	Improving students’ media literacy skills in a digital learning environment based on interactive educational technologies **Temirova Z.A.**	**149-154**
27	Tibbiy ta’lim muassasalari talabalarida klinik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Kamalova D.A.**	Technology for developing clinical thinking competence among students of medical educational institutions **Kamalova D.A.**	**155-159**
28	Charlz Dikkensning ijodida idio-stilning rivojlanishi: lingvostilistika tahlili **Rahmatilloyeva R.S.**	The development of idio-style in charles dickens’s creative work: linguastylistic analysis **Rahmatilloeva R.S.**	**160-167**

UDK: 373.5:54:37.013.42 https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3847

SAMKOMSTARISNING SAMARQANDDAGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLARI VA MUZEY FONDLARI SHAKLLANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI

M.Yunusov
Ipak yo‘li xalqaro turizm va madaniy meros universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

M.Yunusov
Ipak yo‘li xalqaro turizm va madaniy meros universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 16.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 30.03.2026
Qabul qilindi: 17.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1920–1930-yillarda Samarqandda faoliyat yuritgan muzeylar ishi, qadimiy yodgorliklar, san’at va tabiatni muhofaza qilish Samarqand bo‘limi — Samkomstarisning arxeologik tadqiqotlar olib borish va muzey fondlarini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, nashr etilgan materiallar hamda muzey kolleksiyalariga oid ma’lumotlar asosida tashkilotning tarixiy-madaniy merosni aniqlash, o‘rganish, qayd etish va saqlash bilan bog‘liq faoliyati yoritilgan. Maqolada Shohizinda ansambli, Qusam ibn Abbos maqbarasi, Childuxtaron maqbarasi, Mirzo Ulug‘bek va Sherdor madrasalari, Amir Temur va Bibixonim maqbaralari, Afrosiyob, Navkatepa, Bekqo‘rg‘ontepa hamda Samarqand vohasining boshqa yodgorliklarida olib borilgan arxeologik kuzatuv va qazishmalar natijalari ko‘rib chiqilgan. Samkomstarisning faoliyati nafaqat obidalarni muhofaza qilish, balki topilmalarni yig‘ish, inventarlashtirish va muzey fondlariga topshirish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etgani ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, Muso Saidjonovning mazkur jarayondagi ilmiy va tashkiliy faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijasida Samkomstaris Samarqandda arxeologik izlanishlarni institutsionallashtirish, moddiy madaniy meros namunalarini muzey fondlari tarkibiga kiritish va ularni keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun manba sifatida saqlashda muhim o‘rin tutgani xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar. Samkomstaris, Samarqand, arxeologik tadqiqotlar, muzey fondlari, madaniy merosni muhofaza qilish, muzeylashtirish, Muso Saidjonov, Afrosiyob, me’moriy yodgorliklar, arxeologik kolleksiyalar.

Вклад Самкомстариса в археологические исследования Самарканда и формирование музейных фондов

Аннотация. В статье рассматривается деятельность Самаркандского отделения по делам музеев, охране памятников старины, искусства и природы — Самкомстариса — в области археологических исследований и формирования музейных фондов в Самарканде в 1920–1930-е годы. На основе анализа научной литературы, опубликованных материалов, а также сведений о музейных коллекциях освещаются основные направления деятельности организации, связанные с выявлением, изучением, фиксацией и сохранением археологических и архитектурных объектов. Особое внимание уделено археологическим наблюдениям и раскопкам, проведённым в комплексе Шахи-Зинда, мавзолеях Чильдухтарон, Кусама ибн Аббаса, Амир Темура, Биби-Ханым, медресе Улугбека и Шердор, а также на Афрасиабе, Навкатепе, Беккургантепе и других памятниках Самаркандского региона. Показано, что Самкомстарис сыграл важную роль не только в охране историко-культурного наследия, но и в сборе,

инвентаризации и передаче археологических находок в музейные фонды. В статье также раскрывается вклад Мусы Саиджанова в организацию полевых исследований и научную интерпретацию выявленных материалов. Делается вывод о том, что деятельность Самкомстариса стала важным этапом в институционализации археологических исследований в Самарканде и в формировании музейных коллекций как источников для последующего научного изучения.

Ключевые слова: Самкомстарис, Самарканд, археологические исследования, музейные фонды, охрана культурного наследия, музеефикация, Муса Саиджанов, Афрасиаб, архитектурные памятники, археологические коллекции.

The contribution of samkomstaris to archaeological research in Samarkand and to the formation of museum collections

Abstract. This article examines the activities of the Samarkand branch for museums, protection of ancient monuments, art, and nature—Samkomstaris—in the field of archaeological research and museum collection formation in Samarkand during the 1920s and 1930s. Based on the analysis of scholarly literature, published materials, and museum collection data, the study highlights the organization's main areas of work related to the identification, investigation, documentation, and preservation of archaeological and architectural sites. Particular attention is paid to archaeological observations and excavations carried out at the Shakhi-Zinda complex, the mausoleums of Chilhujtaron, Kusam ibn Abbas, Amir Temur, and Bibi Khanum, the Ulugh Beg and Sherdor madrasas, as well as at Afrasiab, Navkatepa, Bekqurgantepa, and other sites in the Samarkand region. The article shows that Samkomstaris played an important role not only in the protection of historical and cultural heritage, but also in the collection, inventorying, and transfer of archaeological finds into museum holdings. Special emphasis is placed on the contribution of Musa Saidjanov to the organization of field research and the scholarly interpretation of the discovered materials. The study concludes that the activities of Samkomstaris constituted an important stage in the institutionalization of archaeological research in Samarkand and in the formation of museum collections as a source base for further academic study.

Keywords: Samkomstaris, Samarkand, archaeological research, museum collections, cultural heritage protection, museification, Musa Saidjanov, Afrasiab, architectural monuments, archaeological collections.

Kirish. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Samarqandda arxeologik tadqiqotlar, tarixiy obidalarni muhofaza qilish, ularni ilmiy tavsiflash va muzey fondlarini shakllantirish jarayonida Muzeylar ishi, qadimiy yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish Samarqand bo'limi - Samkomstaris alohida o'rin tutadi. Samkomstaris faoliyati, bir tomondan, ilk sovet davrida madaniy merosni saqlashga qaratilgan umumittifoq va mintaqaviy siyosat bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, u Samarqanddagi aniq tarixiy yodgorliklar va arxeologik obyektlarni o'rganish, ularni ro'yxatga olish hamda topilmalarni muzey kolleksiyalariga aylantirishning amaliy mexanizmini shakllantirgan. Tadqiqotlarda turli yillarda Turkiston, O'rta Osiyo va O'zbekiston nomlari bilan atalgan (Turkkomstaris-Sredazkomstaris-Uzkomstaris) ushbu tashkilot ilk sovet davrida madaniy

qadriyatlarni saqlash siyosatini ishlab chiqishda muhim institut bo‘lgani, ayniqsa, milliy-hududiy chegaralanish arafasida merosni muhofaza qilish va restavratsiya ishlari siyosiy hamda institutsional tus olgani ko‘rsatiladi [11].

Samkomstarisning Samarqanddagi faoliyati faqat ma’muriy-muhofaza vazifalari bilan cheklanmagan. U arxeologik kuzatuv, qazishma, restavratsiya jarayonida topilmalarni yig‘ish, tasniflash, xatlovdan o‘tkazish va muzey fondlariga topshirish orqali moddiy madaniy merosni ilmiy muomalaga kiritishda muhim rol o‘ynagan. Samkomstaris tomonidan o‘tkazilgan ishlar natijasida yig‘ilgan va hozir Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasida saqlanayotgan kolleksiyalar yodgorlikning arxitektura qoldiqlaridan tortib sopol, mato, yog‘och, qorishma namunalari va me’moriy bezak bo‘laklarigacha bo‘lgan turli tipdagi materiallarni o‘z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Samkomstaris faoliyatini o‘rganishda, avvalo, Turkkomstaris–Sredazkomstaris–Uzkomstaris tizimining umumiy tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yo‘nalishda B. V. Luninning Samkomstarisdan oldingi va keyingi “komstaris” tizimi faoliyatini umumlashtirgan ishlari alohida ahamiyatga ega. Muallif mazkur tizimlarning madaniy merosni ro‘yxatga olish, saqlash, restavratsiya qilish va muzeylar bilan bog‘liq vazifalarini yoritadi. Shu bilan birga, B. Ya. Staviskiy va N. N. Jukova tadqiqotlarida Turkkomstarisning tashkil topish tarixi maxsus ko‘rib chiqilgan. Biroq bu ishlar asosan umumittifoq va mintaqaviy institutsional tarixga bag‘ishlangan bo‘lib, Samarqanddagi konkret arxeologik izlanishlar hamda muzey fondlariga topshirilgan kolleksiyalar maxsus tahlil etilmaydi [12,18].

Mazkur mavzuni yoritishda Muso Saidjonov shaxsi va ilmiy faoliyatiga oid tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. S. M. Gorsheninaning maqolasida Saidjonov tarixchi, arxeolog va san’atshunos sifatida tavsiflanib, uning Buxoro va Samarqanddagi tarixiy obidalarni o‘rganishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Biroq bu ishda Saidjonovning umumiy ilmiy merosi haqida ko‘proq so‘z yuritilib, uning Samkomstaris doirasida yig‘gan arxeologik kolleksiyalarining bugungi fondlardagi holati maxsus tadqiq etilmagan [10].

Saidjonovning o‘z asarlari esa mavzu uchun birlamchi ilmiy manba vazifasini bajaradi. Uning Samarqand yodgorliklariga bag‘ishlangan ishlari orasida, ayniqsa, Childuxtaron maqbarasi haqidagi maqolalari muhimdir. Bu maqolalarda muallif yodgorlikning holati, tuzilishi va tarixiy talqiniga doir kuzatishlarini bayon qiladi. Shuningdek, “G‘o‘ri Amir” va “Eski Samarqand” kabi ishlar ham Saidjonovning Samarqand me’moriy merosiga ilmiy qiziqishini ko‘rsatadi. Biroq bu asarlar alohida obidalar yoki tarixiy-topografik masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, Samkomstaris tomonidan Samarqand bo‘ylab yig‘ilgan barcha arxeologik materiallarni yagona tizim sifatida umumlashtirmaydi [9, 13, 14, 17].

Samarqand arxeologiyasi tarixiga bag‘ishlangan umumlashtiruvchi tadqiqotlar ham maqola mavzusi uchun muhim tarixshunoslik fonini yaratadi. V. A. Shishkinning Samarqand va uning atroflarini arxeologik o‘rganish tarixiga oid katta maqolasi bu borada asosiy klassik ishlardan biridir. Unda Samarqandda XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida olib borilgan arxeologik izlanishlar bosqichma-bosqich tavsiflanadi. Keyingi mualliflar ham aynan shu ishga tayangan holda Samarqand arxeologiyasi tarixini yoritadilar. Ammo bu tadqiqotlarda Samkomstaris umumiy tarixiy jarayonning bir qismi sifatida tilga olinadi, uning muzey fondlarini shakllantirishdagi aniq hissasi markaziy tadqiqot obyekti darajasiga ko‘tarilmaydi [19].

Afrosiyob va Samarqandning me’moriy bezaklariga oid maxsus tadqiqotlar orasida L. Rempel ishlari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Samarqand va umuman O‘zbekiston me’moriy ornamentiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ayrim arxeologik topilmalarning, xususan o‘yma sopol qoplamalarning san’atshunoslik tahlilini beradi. Samkomstaris yig‘gan kolleksiyalardan kamida bittasi Afrosiyobdagi Qoraxoniylar davriga oid me’moriy qoplamalar keyinchalik ilmiy muomalaga kiritilgan, qolganlari esa deyarli tadqiq etilmagan. Mavjud adabiyotlarda ayrim topilmalar yoritilgan bo‘lsa-da, Samkomstaris yig‘imlari yaxlit o‘rganilmagan.

Mavjud adabiyotlarni shartli ravishda to‘rt guruhga ajratish mumkin: birinchisi “komstaris” tizimining umumiy institutsional tarixiga oid ishlar; ikkinchisi Muso Saidjonovning hayoti va ilmiy merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlar; uchinchisi Samarqand arxeologiyasi tarixini umumlashtiruvchi asarlar; to‘rtinchisi alohida yodgorliklar va me’moriy bezak materiallariga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar. Ushbu adabiyotlarning barchasi mavzuning ayrim jihatlarini yoritadi, biroq Samkomstarisning aynan

Samarqanddagi arxeologik tadqiqotlari natijasida yig‘ilgan materiallarni muzey fondlari bilan bog‘liq holda, kompleks ravishda o‘rganuvchi maxsus tadqiqot mavjud emas.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqotda Samkomstarisning Samarqanddagi arxeologik faoliyatini o‘rganishda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga tayangan holda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tashkilotning yodgorliklarni muhofaza qilish, arxeologik kuzatuv va qazishmalar olib borish, topilmalarni qayd etish hamda ularni muzey fondlariga topshirish bilan bog‘liq faoliyatini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat bo‘ldi.

Tadqiqotda avvalo tarixiy-genetik metoddan foydalanilib, Samkomstaris faoliyatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari Turkkomstaris–Sredazkomstaris–Uzkomstaris tizimi doirasida ko‘rib chiqildi. Bu usul tashkilotning dastlab ma’muriy-muhofaza vazifalaridan boshlab, keyinchalik arxeologik materiallarni yig‘ish va muzeylashtirish jarayonidagi amaliy faoliyatigacha bo‘lgan taraqqiyotini ochib berishga xizmat qildi.

Shuningdek, tarixiy-qiyosiy metod asosida Samarqand shahri va viloyatidagi turli yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar o‘zaro solishtirildi. Xususan, Shohizinda, Childuxtaron, Mirzo Ulug‘bek madrasasi, Amir Temur maqbarasi, Bibixonim maqbarasi, Sherdor madrasasi, Afrosiyob va boshqa obyektlarda aniqlangan topilmalar tarkibi, xronologiyasi va muzey fondlariga topshirilish holati qiyosiy tahlil qilindi.

Manbashunoslik tahlili metodi yordamida ilmiy adabiyotlar, Muso Saidjonovning maqolalari hamda Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi fondlariga oid inventar ma’lumotlari o‘rganildi. Shu bilan birga, tasniflash va tipologik tahlil orqali topilmalar me’moriy detallar, sopol buyumlar, mato, yog‘och va bezak qismlariga ajratib ko‘rib chiqildi. Muzeyshunoslik yondashuvi esa ushbu ashyolarni muzey kolleksiyasining tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini berdi. Natijada, qo‘llanilgan metodlar Samkomstaris faoliyatini arxeologiya, muzeyshunoslik va merosni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan kompleks yoritishga xizmat qildi

Tahlil va natijalar. Samarqanddagi Samkomstaris faoliyatining dastlabki va muhim bosqichlaridan biri 1923-yilda Shohizinda ansamblidagi Xo‘ja Ahmad maqbarasida olib borilgan arxeologik tadqiqotdir [15]. Tadqiqotning asosiy maqsadi Xo‘ja Ahmad qabri va maqbara hududining asl joylashuvi, qadimgi tuzilishi, keyingi davrlardagi o‘zgarishlari hamda madaniy qatlamlarini aniqlashdan iborat bo‘lgan. Tadqiqot davomida qabr atrofi, qurilish qatlamlari, keyingi davr ta’mirlari, eski pol sathlari, g‘ishtli konstruksiyalar, qadimiy poydevor izlari, qayta ishlatilgan qurilish materiali, kul va tuproq qatlamlari qayd etilgani uning ilmiy xarakterini yaqqol ko‘rsatadi. Tadqiqot natijasida maqbaraning hozirgi ko‘rinishi uning dastlabki holatini to‘liq aks ettirmasligi, u bir necha marta qayta qurish va ta’mirlashlarni boshdan kechirgan bo‘lishi mumkinligi haqidagi xulosaga kelinadi. Mazkur arxeologik tadqiqot Samarqandda diniy-memorial obidalarni o‘rganishda 1920-yillarning o‘zidayoq stratigrafik kuzatuv, topografik aniqlash va konstruktiv tahlil unsurlari qo‘llanilganini ko‘rsatishi bilan qimmatlidir.

1930-yillarga kelib Samkomstarisning faoliyati yanada kengaydi va bu jarayon Muso Saidjonov rahbarligidagi izlanishlarda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ldi. Samkomstarisning mazkur davrdagi faoliyatida Muso Saidjonov shaxsi alohida o‘rin tutadi. M. Saidjonov nafaqat jadid, davlat va jamoat arbobi, balki tarixiy obidalarni o‘rganish, o‘lkashunoslik va arxeologik merosni muhofaza qilish sohasida ham faol ish olib borgan ziyolilardan biri edi.

1934-yilda Qusam ibn Abbos maqbarasida, Shohizinda ansamblida Samkomstaris tomonidan M. Saidjonov rahbarligida o‘tkazilgan qazishmalar natijasida XIV asrga oid me’moriy detallar bo‘laklaridan iborat 29 ta ashyo yig‘iladi (A-257) va Samarqand muzeyiga topshiriladi [5]. Ushbu kolleksiya Shohizinda ansambli tarkibidagi me’moriy bezaklar, qoplama elementlari va qurilish detallarini ilmiy ro‘yxatga olishga xizmat qilgan.

1936-yilda Samkomstaris tomonidan M. Saidjonov rahbarligida Samarqanddagi Childuxtaron maqbarasida qazishmalar amalga oshirilgan. Mazkur qazishma natijasida XVI asrning birinchi yarmiga oid me’moriy detallar bo‘laklaridan iborat 328 ta ashyo aniqlanib (A-258) Samarqand muzeyiga topshirilgan [7]. Uning Samarqanddagi Childuxtaron maqbarasida olib borgan arxeologik tadqiqotiga bag‘ishlangan alohida maqolasi avval lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tilida, keyin esa rus tilida nashr etilgan [9, 17]. Bu holat uning nafaqat qazishma tashkilotchisi, balki natijalarni ilmiy talqin qilgan tadqiqotchi sifatidagi o‘rnini ham ko‘rsatadi. Kolleksiyaning hajmi va mazmuni Childuxtaron maqbarasining arxitektura tarixi, qurilish texnikasi va badiiy bezak xususiyatlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

1936-yilning o‘zida Mirzo Ulug‘bek madrasasi kirish portalida Samkomstaris tomonidan olib borilgan restavratsiya ishlari davomida XV asrga oid me’moriy qoplamalar va sopol buyumlardan iborat 20 ta ashyo yig‘ilgan [4] (A-259) va Samarqand muzeyiga topshirilgan. Restavratsiya jarayoni faqat tiklash amaliyoti emas, balki yangi topilmalarni aniqlash va ularni muzey fondlariga kiritish manbai ham bo‘lgan.

Samkomstaris faoliyati faqat Samarqand shahri yodgorliklari bilan chegaralanib qolmagan, balki Samarqand viloyati va unga yaqin hududlarning arxeologik obyektlarini ham qamrab olgan. Masalan, 1936-yilda Oqdaryo tumani Navkatepa yodgorligida VI asrga oid ostadon hamda sopol idish va qopqoq qismlaridan iborat 3 ta ashyo yig‘iladi (A-252) [6]. Bu topilmalar Samarqand vohasida dafn marosimi va kulolchilik madaniyatining ilk o‘rta asrlar davridagi ko‘rinishlarini o‘rganishga imkon beradi. Xuddi shuningdek, Qo‘shrabot tumani Jo‘sh qishlog‘idagi Bekqo‘rg‘ontepa yodgorligida M. Saidjonov rahbarligida o‘tkazilgan tadqiqot davomida vizual kuzatuv natijasida 46 dona sopol buyum yig‘ilgan (A-335) va ular ham Samarqand muzeyiga topshirilgan [6]. Shu o‘rinda afsus bilan ta’kidlash joizki, Samkomstarisning Samarqand muzeyidagi kolleksiyalari oradan qariyb 100 yilga yaqin vaqt o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan ilmiy tadqiq etilmagan.

Kattaqo‘rg‘on tumani Payshanba shaharchasidagi Tepa-III yodgorligi, yahudiylar qabristonidan yig‘ilgan 6 dona sopol parchalari [2] (A-345) hamda Ishtixon tumanidagi Ishtixon yodgorligidan to‘plangan 56 dona sopol parchalari [3] (A-347) dan iborat kolleksiyalar ham keyingi tadqiqotlar uchun zarur faktologik bazani shakllantirgan.

1937-yilga kelib Samkomstarisning yodgorliklarni kuzatish, restavratsiya va topilmalarni yig‘ish bo‘yicha faoliyati yangi bosqichda davom etgan. Samarqanddagi Amir Temur maqbarasidan XV asrga oid 5 dona archa to‘sini payraxalari [6] (A-253), Bibixonim maqbarasida sarkofaklarni ko‘zdan kechirish vaqtida aniqlangan XV asrga oid 4 dona mato bo‘lagi [1] (A-254) ning aniqlanishi va Samarqand muzeyiga topshirilishi mavsumdagi dastlabki tadqiqotlar natijasidir. Topilmalar shuni ko‘rsatadiki, Samkomstaris faoliyati nafaqat arxeologik qazishma yoki vizual kuzatuvlar, balki memorial obidalarning ichki konstruktiv hamda dafn bilan bog‘liq qatlamlarida ham tadqiqotlar o‘tkazish orqali ham boyigan.

M. Saidjonov rahbarligida Sherdor madrasasida o‘tkazilgan kuzatuv ishlari davomida XVII asrga oid me’moriy koshinlar va mozaikalardan iborat 33 dona ashyolar [3] (A-364), turli yodgorliklardan yig’ilgan XV–XVII asrlarga oid me’moriy koshinlar, mayolika va mozaikalardan iborat 40 dona buyumlar [6] (A-365), noma’lum yodgorlikdan yig‘ilgan XV–XVII asrlarga mansub 18 dona me’moriy koshin-mayolikalar [6] (A-366), yana bir noma’lum yodgorlikdan yig‘ilgan 16 dona o‘yma sopol me’moriy qoplamalar [6] (A-367) ham 1937-yilgi tadqiqotlar mahsulidir. Afrosiyob shaharchasidagi Qoraxoniylar davriga oid XI asr masjididan yig‘ilgan 418 dona o‘yma sopol me’moriy qoplamalar kolleksiyasi [8] (A-368) Samkomstarisning eng yirik va eng muhim tadqiqoti samarasidir. Faqatgina mazkur kolleksiya keyinchalik A. I. Rempel tomonidan nashr qilingan [16] bo‘lib, Samkomstaris yig‘imlarining ilmiy adabiyotda ham muhim manbaga aylanganini bildiradi.

Xulosa va takliflar. Tahlillarni umumlashtiradigan bo‘lsak, Samkomstaris tomonidan o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar va kuzatuvlar natijasida yig‘ilgan materiallarning umumiy soni 1087 tani tashkil etadi. Afsuski, ushbu kolleksiyalarning bittasidan tashqari hech biri ilmiy muomalaga kiritilmagan. Arxeologik yodgorliklarda keyinchalik tadqiqotlar o‘tkazilgan, davlashtirilgan bo‘lishi mumkin, biroq tashkilotning Samarqand me’moriy yodgorliklari bilan bog‘liq tadqiqotlari natijasida yig‘ilgan me’moriy detallar qimmatli ma’lumotlarni berishi, tariximizning oq dog‘larini to‘ldirishga xizmat qilishi mumkin.

Samkomstaris faoliyati Samarqand viloyatida sovet davri arxeologik tadqiqotlari tarixida o‘tish bosqichining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Rossiya imperiyasi davrida shakllangan tavsifiy-o‘lkashunoslik yo‘nalishlari bu davrga kelib ancha tizimli, institutsional va muzeylashtirilgan xarakter kasb etdi. Samkomstaris ana shu transformatsiyaning Samarqanddagi amaliy ifodasi bo‘lib, yodgorliklarni muhofaza qilish bilan birga ularni stratigrafik o‘rganish, konstruktiv tahlil qilish, arxeologik materiallarni to‘plash, inventarlashtirish va keyingi ilmiy muomalaga tayyorlash ishlarini amalga oshirdi. Muso Saidjonovning bu jarayondagi o‘rni esa tashkilotning ilmiy salohiyatini kuchaytirgan asosiy omillardan biri bo‘ldi. Uning bevosita rahbarligida amalga oshirilgan qazishma va kuzatuvlar Samarqand viloyatining moddiy madaniy merosini ilmiy ravishda qayd etish va saqlash tarixida muhim bosqichni tashkil etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 9-inventar kitobi, 207-bet.
2. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 16-inventar kitobi, 57-59 betlar
3. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 26-inventar kitobi, 20-38 betlar.
4. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 39-inventar kitobi, 36-43 betlar.
5. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 44-inventar kitobi 15-25 betlar.
6. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 45-inventar kitobi, 13-28, 28-36, 37-44, 56-58, 172-174 betlar
7. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 49-inventar kitobi, 33-114 betlar.
8. O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari 63-inventar kitobi, 1-123 betlar.
9. Saidjonov M. Yu. Samarqanddagi "Childuxtaron" maqbarasining tekshiriluvi // Sotsialistik fan va texnika. 1935. – № 5. – 83-85 bet.
10. Горшенина С. М. Муса Саиджанов – историк, археолог, искусствовед // Общественные науки в Узбекистане. 1995. № 1–2–3.
11. Горшенина С.М. Туркомстарис-Средазкомстарис-Узкомстарис: формирование институций и этноцентрический раздел культурного наследия Средней Азии. Этнографическое обозрение, 2013, №1, С.52-68.
12. Лунин Б. В. Из истории изучения памятников старины и искусства Средней Азии (Туркомстарис, Средазкомстарис, Узкомстарис) // Общественные науки в Узбекистане. 1990. № 3;
13. Мусо Саиджон. Eski Samarqand. Mutarjim – Musa Sayid jan // Маориф ва ўқитувчи. 1930. № 6–7;
14. Мусо Саиджон. Гўри Амир // Маориф ва ўқитувчи. 1929. 4-сон;
15. Отчет археологической секции Самаркандской комиссии по охране памятников старины и искусств об исследовании усапальницы Ходжа Ахмада из группы мавзолеев Шахи-Зинда в Самарканде при откопке фундаментов произведенной в 1922 году. Samarqand arxeologiya instituti ilmiy arxivi. 4-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish. 29 bet.
16. Ремпель А.И. Архитектурный орнамент Узбекистана: история развития и теория строительства. Ташкент-1961. 602 с.
17. Саиджанов М. Ю. Обследование усыпальницы Чильдухтарон в Самарканде // Социалистическая наука и техника. 1936. № 3. С. 92–94.
18. Ставиский Б. Я., Жукова Н. Н. Из истории создания Туркомстарис // Общественные науки в Узбекистане. 1981. № 3.
19. Шишкин В. А. К истории археологического изучения Самарканда и его окрестностей // Афрасиаб. Вып. I. Ташкент, 1969. С. 3–120.

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296